



journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>

UZBEKISTAN - PAKISTAN: ENDURING FRIENDSHIP AND STABLE COOPERATION

Aziza Aminboyevna Rashidova

PhD candidate, Nizami National Pedagogical

University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Historical roots, expansion of multifaceted and mutually beneficial relations, intergovernmental relations, trade relations, promising project.

Received: 19.04.26

Accepted: 20.04.26

Published: 21.04.26

Abstract: This article analyzes the long-standing friendship and cooperation between Uzbekistan and Pakistan. The author has highlighted Uzbekistan's cooperation with Pakistan based on historical roots, expansion of multifaceted and mutually beneficial relations, intergovernmental relations, and mutual trade relations. At the same time, he has also considered promising projects and plans for the further development of these relations in the future. The article also makes effective use of the National Archive Funds of Uzbekistan, information from the National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan, periodical press materials, and official websites of ministries.

O'ZBEKISTON – POKISTONNING DO'STLIK VA BARQAROR HAMKORLIK ALOQALARI

Aziza Aminboyevna Rashidova

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika

Universiteti doktaranti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Tarixiy ildizlari, ko'p qirrali va o'zaro manfaatli munosabatlarni kengaytirish, hukumatlararo aloqalar, savdo aloqalari, istiqbolli loyiha.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi azaliy do'stlik va hamkorlik munosabatlari tahlil etilgan. Muallif, O'zbekistonning Pokiston bilan hamkorligini tarixiy ildizlari, ko'p qirrali va o'zaro manfaatli munosabatlarni

kengaytirish, hukumatlararo aloqalari, o'zaro savdo aloqalar manbalar asosida yoritib bergan. Shu bilan birga kelgusida ushbu aloqalarning yanada rivojlanishi uchun istiqbolli loyihalar va rejalar bo'yicha ham mulohaza yuritgan. Maqolada O'zbekiston Milliy Arxiv fondlari, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumoti, davriy matbuot materiallari hamda vazirliklarning rasmiy internet saytlaridan ham unumli foydalanilgan.

УЗБЕКИСТАН - ПАКИСТАН: ПРОЧНАЯ ДРУЖБА И СТАБИЛЬНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО

Азиза Аминбоевна Рашидова

Докторант Национального педагогического университета

Узбекистана имени Низами

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Исторические корни, расширение многогранных и взаимовыгодных отношений, межправительственные связи, торговые отношения, перспективный проект.

Аннотация: В данной статье анализируется многолетняя дружба и сотрудничество между Узбекистаном и Пакистаном. Автор освещает сотрудничество Узбекистана с Пакистаном, основанное на исторических корнях, расширении многогранных и взаимовыгодных отношений, межправительственных связях и взаимных торговых отношениях. Одновременно рассматриваются перспективные проекты и планы дальнейшего развития этих отношений в будущем. В статье также эффективно используются данные Национального архивного фонда Узбекистана, информация Национального статистического комитета Республики Узбекистан, материалы периодических изданий и официальные сайты министерств.

Kirish. Tarixga nazar tashlasak, O'zbekiston va Pokiston munosabatlari uzoq asrlik boy hamkorlik va do'stlik rishtalari bilan bog'langan. Buni biz buyuk mutaffakirimiz Abu Rayhon Beruniyning "Hindiston", asari[1], sarkarda va boburiylar saltanati asoschisi Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"[2] asari hamda Turk admirali Seydi Ali Raisning "Mir'otul

mamolik”[3] asarlarida O’rta Osiyo va Hindiston o’rtasidagi savdo -sotiq aloqalari,geografik joylashuvi va shaharlari va xalqlar o’rtasidagi munosabatlar yoritib berilgan. Markaziy va Janubiy Osiyo uzoq asrlar davomida bir-birlari bilan o’zaro aloqada bo’lib kelgan. Bunda Buyuk Ipak yo’li, Hind-Gang yo’llari orqali nafaqat savdo-sotiq ishlar, balki ikki xalq g’oyalari, ilmiy yutuqlari, madaniy va ma’naviy qadriyatlar tarqalishiga sabab bo’lgan. Shuni aytish joizki, ikki mintaqa xalqlari umumiy davlat tuzilmalari ostida jumladan, Kushon podsholigi, Turk hoqonligi, G’aznaviylar davlati,Temuriylar va Boburiylar davrlarida yashagan[4]. Boburiy hukmdorlar Zahiriddin Muhammad Bobur, Akbarshoh va Avrangzeb va boshqa boburiylar davrida Buxoro xonligi bilan faol siyosiy diplomatik aloqalar olib borgan. O’zaro aloqalarda hukmdorlar qimmatbaho buyumlar va nafis mollar bir birlariga tortiq qilganlar. XVI asrda Buxoro va Hindiston o’rtasida qizg’in siyosiy diplomatik munosabatlar ikki tomon uchun manfaatli bo’lgan[5]. Lekin afsuski, XIX asrda ikki muntaqa o’rtasidagi hamkorlik aloqari uzildi.

O’zbekiston mustaqilligini qo’lga kiritgach Pokiston birinchilardan 1991-yil 20-dekabrda O’zbekiston mustaqilligini tan oldi va mamlakatlar o’rtasida diplomatik aloqalar 1992-yil 10-mayda o’rnatildi. Shundan so’ng, Pokiston Islom Respublikasining Toshkentdagi elchixonasi (o’sha yilning iyun oyida) va O’zbekiston Respublikasining Islomoboddagi elchixonasi (1994-yil iyul oyida) ochildi[6].O’zbekiston Pokiston islom Respublikasi bilan o’zaro manfaatli savdo-iqtisodiy ,investitsiya, madaniy gumanitar sohalarda hamkorlik aloqalarini yo’lga qo’ydi. Tomonlar o’rtasida 23 dan ortiq davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo hujjatlar imzolandi.[7](2006 yil 30- dekabr holatiga ko’ra) So’nggi yillarda O’zbekiston va Pokiston islom Respublikasi o’rtasida hamkorlik barcha ustuvor yo’nalishlarda faol rivojlanmoqda va qo’shma loyiha va tashabbuslar ilgari surilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada, O’zbekiston va Pokiston hamkorlikni tarixiy mushtarakligi, mustaqillik yillarida hamkorlikni huquqiy asoslarini yaratilishi va shakllanishi haqida retrospektiv, tanqidiy tahlil qilish metodlari asosida xulosalar chiqarildi.

Adabiyotlar tahlili. Maqolada, mavzuga oid bo’lgan o’ndan ortiq adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlar qiyosiy tahlil qilinib, tadqiqot olib borildi. Jumladan, Nizomiddinov, XVI-XVIII asrlarda O’rta Osiyo -Hindiston munosabatlari,S.M.Sattorov, O’zbekiston tashqi siyosatida iqtisodiy diplomatiyaning o’rni, M.Muhammadsidiqov Xalqaro mintaqashunoslik, S.Bo’ronov O’zbekiston geosiyosati,O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari, N.Ibragimova, F.O.Ismatullayev, A.I.Vaskin, G’.Mirzayev, dissertatsiyalaridan foydalanildi va xulosa chiqarildi.

Muhokama va natijalar. O’zbekiston va Pokiston islom Respublikasi o’rtasidagi har tomonlama hamkorlik tarixi o’rganilar ekan, o’zaro aloqalarning u yoki bu tomonlari mahalliy

ekspertlar, tarixchilar va siyosatchilar tomonidan tadqiq etilganligini ko‘rishimiz mumkin. O‘tgan davrda yaratilgan ilmiy asarlarda ko‘proq O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy strategiyasi va omillari, xalqaro maydonga chiqishi, xalqaro munosabatlarning zamonaviy shaklini yaratishdagi o‘rni hamda jahon hamjamiyati mamlakatlari va nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro manfaatli ko‘p qirrali hamkorlik aloqalari masalalarini qamrab olinganligini guvohi bo‘lamiz.[8]

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimovning Pokiston islom Respublikasiga rasmiy tashrifi 1992 yil 13-14 avgustda bo‘lib o‘tdi. Bu uch kunlik tashrif davomida telekommunikatsiya, energetika, irrigatsiya va suv xo‘jaligi, transport aloqalari sohaslarida hamkorlik qilishga, shuningdek, sarmoya solishni rag‘batlantirishga va himoya qilishga doir o‘zaro manfaatli bitimlar imzolandi [9]. O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati bo‘yicha Markaziy Banki tomonidan Pokiston banklari “Allayd bank of Pokiston Ltd” va “Habib bank Ltd” bilan hisob raqamlari ochmasdan korrespondentlik munosabatlari o‘rnatildi va bitim imzolandi. Shuningdek, Pochta va telekommunikatsiya sohasida hamkorlik to‘g‘risida bitim imzolandi. Ushbu bitimga muvofiq Pokiston va O‘zbekiston o‘rtasida xalqaro telefon aloqasi Yaponiya va Isroil orqali kommunikatorli tranzit usuli bilan amalga oshirilmoqda. Pokistonning Trans Osiyo tovush (TAE optik tolali aloqa liniyasi qurilishi loyihasida qatnashishi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri telefon kanallari tashkil qilish yuzasidan muzokaralar olib borildi. Pokiston TAE ga qo‘shilishi zarurligi qisqa muddatlarda umumiy tuzimga ulanishi, shuningdek, EKO a‘zo davlatlari o‘rtasida bog‘langan aloqa tizimini amalga oshirish bilan bog‘liq. Mavjud va qurilayotgan kabel liniyalarini hisobga olgan holda Pokistonning TAE ga qo‘shilishi uchun ikki variant

- Eron chegarasigacha Shahedan hududida kabel o‘tkazish;

- Peshovar orqali Afg‘oniston hududidan o‘tib, Termizgacha optik tolali aloqa liniyasi qurish bunda Toshkent ko‘plab xorijiy davlatlar uchun telekommunikatsiya tranzit uzeli sifatida mustahkamlanadi [10].

O‘zbekiston va Pokiston diplomatik munosabatlarida Hukumatlararo komissiya tuzishga kelishib olinishi, ikki davlat hukumatlari o‘rtasida do‘stlik va iliqlikni mustahkamlashini maqsad qilgan holda quyidagi vazifalar belgilandi.

- O‘zbekiston Respublikasi va Pokiston islom Respublikasi o‘rtasida savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlikni rivojlantirish;

- Davlatlarning vakolatli organlari har tomonlama hamkorlikni samaradorligini oshirish bo‘yicha o‘z takliflarini taqdim etishi;

-Ikki mamalakat o'rtasida erishilgan kelishuv, bitim va shartnoma hamda hukumatlararo komissiya tomonidan qabul qilingan qarorlar ijrosini bajarilishini monitoringini olib borish.

Ushbu hamkorlik kelgusida ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikda yangi qirralarni ochishi va o'zaro savdo aylanmasini o'sishini hamda investitsion loyihalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston va Pokiston Hukumatlararo komissiya birinchi yig'ilishi 1993 yil 30-31 mart kunlari Islomobodda bo'lib o'tdi. Ikki davlat o'rtasidagi Hukumatlararo komissiya doimiy faoliyati olib bordi. 2024 yil 3-4 noyabrda Hukumatlararo komissiyaning 9- yig'ilishi hamda O'zbekiston - Pokiston biznes forumi bo'lib o'tdi. Uchrashuv davomida savdo-iqtisodiy, investitsiya, sanoat koorpatsiyasi, transport va logistika sohalarida o'zaro kelishuvlat amalga oshirildi. O'zbekiston Pokiston bilan savdo miqdori oxirgi besh yilda 3 barobarda oshdi, qo'shma korxonlar soni 128 taga yetdi [11]. Investitsion hamkorlik doirasida 2025-2026 yillar uchun "sanoat koorparatsiyasi dasturi" ishlab chiqildi. Tashrif daomida Hukumatlararo komissiya yig'ilishi va biznes forumini samarali o'tkazish muhimligi ta'kidlandi.

Xulosa. Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqib shuni xulosa qilishimiz mumkinki, O'zbekiston Pokiston islom Respublikasi bilan tarixan mushtarak ekanligi sababli mustaqillik yillarida barqaror diplomatik munosabatlarni olib bordi. Bunda O'zbekiston va Pokiston islom Respublikasi o'rtasidagi hukumatlararo bitim va kelishuvlar huquqiy asos hisoblanadi. Huquqiy asoslarning yaxshi yo'lga qo'yilishi ikki davlat o'rtasida o'zaro savdo, davlatlararo munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarishda muhim rol o'ynamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Rayhon Beruniy Hindiston. -T.: "O'zbekiston". 2022. 30 b.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur Boburnoma. Toshkent.: "O'qituvchi" 2008 368-b.
3. Seydi Ali Rais. Mir'otul mamolik (Mamlakatlar ko'zgusi). -T.: "O'zbekiston".1963. 34-35 b.
4. Mehreen Gul. Rejuvenating regionalism into academic cooperation:Central & South Asian connectivity/his excellency Shavkat Mirziyoyev a visionary statesman. Pakistan. 2021. p 47- 48.
5. I.F.Nizomiddinov. XVI-XVIII asrlarda O'rta Osiyo - Hindiston munosabatlari. - T.: Fan. 1966. - 44 b
6. Sh.I. Akmalov. Modern Uzbek-Pakistan relations as an important element for the development of interconnectivity and cooperation Central and South Asia Oriental Journal of history ,politics and law. 2022 volume -2, p 233.
7. O'zbekiston Milliy Arxiv fond M- 37, ro'yxat- 4, yig'majild-223, 1-bet

8. F.O.Ismatullayev “Madaniy diplomatiya-tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida” Ijtimoiy-Gumanitar fanlarning dolzarb masalalari va zamonaviy yondoshuv xalqaro ilmiy- amaliy konferensiya 13-14 mart 2025 yil 1006-1009 bet

9. Xalq so‘zi gazetasi 1992 yil 14 avgust № - 157

10. O‘zbekiston Milliy Arxiv fond M-37,ro‘yxat -1, yig‘majild- 1773, 267-bet

11. <https://uza.uz/oz/posts/> . So‘nggi besh yilda O‘zbekiston va Pokiston savdo miqdori uch barobar oshirdi.